

EVFEMIZMLARNING MULOQOT VA BADIY NURQDAGI AHAMIYATI

Kamalova Feruza Omiljonovna

ADPI magistranti

Tabu hodisasi va tabulashtirish insoniyat tafakkuri bilan bog'liq rivojlangan. Ibtidoiy tafakkur borliqqa tilsim omili asosidagi munosabatni vujudga keltiradi. Sehr omili magik tafakkurni shakllantiradi. "Hayotga tilsimiy (magiyaviy) munosabat ma'lum predmetlarni fetishga aylantirib, ularga sig'inishga, u yoki bu jonivorni (yoki o'simlikni) totem hayvon (urug'ning asoschisi, manbai) deb e'lon qilishga va unga sig'inishga olib keladi. Tilsimiy munosabat tabu (taqiq)ga tayanadi. Magiyada tabu sakral (muqaddas) ahamiyat kasb etadi va turmush me'yoriga, qoidasiga aylanadi. Ibtidoiy odamning tabiat va hayot tilsimlaridan, sirlaridan qo'rquvi tabuda namoyon bo'ladi"³⁶.

O'zbek tilshunosligida A.J.Omonturdiyevning "Evfemik vositalarning funksional xususiyatlari" hamda "Professional nutq evfemikasi (chorvadorlar nutqi misolida)" nomli tadqiqot ishi, shuningdek, X.Qodirovaning "Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati", D.Rustamovaning "Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari" va G.Safarova "Evfemizmlarning yosh xususiyatlariga ko'ra sotsial xoslanishi" nomli tadqiqotlari diqqatga sazovor. D.Rustamovaning tadqiqotida millatlararo va etnik muloqot vaziyatida evfemizatsiyaning olam lisoniy manzarasidagi o'rni, ifoda vositalaridan samarali va oqilona foydalanish malakasini o'stirishdagi roli, metaforik usullari, hosil bo'lishining o'xshashlik va farqlilik dialektikasi natijasi bo'lgan kognitiv asoslari ochib berilgan bo'lsa, G.Safarovaning ishida o'zbek tilida aytilishi odob me'yorlariga zid bo'lgan, yoqimsiz va uyat sanalgan tushunchalarni ifodalovchi birliklarning evfemiklashuvining kasb, tarbiya, fe'l-atvor va ruhiy holat ta'sirida ro'y berishi, kichik yoshdagi bolalarda esa evfemiklashuv olamni ontologik bilishga intilishdagi kognitiv jarayon bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Ayrim tadqiqotchilar evfemizmni noverbal shaklda ham amal qiladi, deb hisoblaydilar. Masalan, G'arbda "baxtsiz" hisoblangan 13 raqami qo'llanishining oldini olish maqsadida binolarda 13-qavatning yo'qligi va tovarlarga narx qo'yishda, masalan, 9 dollar o'rniga 8,99 dollar narx

³⁶ Qarang: Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультуроологик ва социопрагматик аспектлари: Филол. фан. б. фалс. док. ...дисс. – Фарғона, 2018. – В. 18.

qo'yilishini evfemiyaning ko'rinishi sifatida baholanadi³⁷. Bizning fikrimizcha, bu tabu kabi taqiq emas, shu bois uning o'rniga go'yoki uni "yumshatayotgan" narsa ham evfemizm hisoblanmasligi lozim. Bu inson tafakkuriga xos bo'lgan analogiya sababidan bo'lishi mumkin. Evfemizm deganda lingvistik qobiqdagi ifoda nazarda tutilgani ma'qul. Shunday qilib, tabu – ma'lum sababga ko'ra qandaydir narsa-hodisaning tilga olinmasligi bo'lsa, evfemizm – shu narsa-hodisaning nomini kengi ma'noda beozor tarzda yetkazish vazifasi yuklangan birliklardir.

Oila qurish ifodalangan quyidagi ikki kontekstni solishtirish evfemizmga bo'lgan zaruratni tushunishga yordam beradi: *O'ziyam qizmisan qiz-da! Quyib qo'ygan o'zbechka! **Xotinlikka olsang** keyin xursand bo'lasan. Sen emas, u seni boshiga ko'tarib boqadi. Labbay? // Begimqul texnikumni bitirganidan keyin shaharda qolgan, uning ishi besh, bultur uy-joylik bo'lib, **uylanib ham olgan edi***. Ushbu ikki kontekstning farqini tushunish qiyin emas. Evfemizm shunday yumshatish qudrati bilan madaniy nutqda hamda badiiyatda ahamiyatli hodisaga aylanadi.

Quyidagi parchaga e'tibor bering:

— *Bir yumush bor, — dedi Xauston. Muhiddin unga baqrayib tikilib qaradi. Bu qarashga inglis dosh berolmay nigohini chetga oldi. — Bir odamning do'ppisi kerak. — Shuning o'zimi! — dedi Muhiddin yayrab jilmayib. — Qulimdan kelmaydigan ishmikan, depman. Usha odamni ayting, boshini olib kelay, do'ppisini o'z qo'lingiz bilan oling. — Sen Xudo yarlaqagan odamsan. Ollah yomonlarning jonini sening qo'ling bilan oladi. U dunyo-bu dunyo kam bo'lmaysan. Shu ishni qilganingdan so'ng, istasang, uch-to'rt kun Farg'onangga borib kel, keyin olis safarga junaysan. — Farg'onada menga nima bor, xo'jayin, siz qaerda bo'lsangiz men ham shundaman. — Qoyilman, senga. Qulog'ingga quyib ol: Mirobod mahallasiga borasan. Asadulla Mira'lam deganni topasan. Uyi boloxonali deyishadi. Boloxonasida dahriy tomoshalar ko'rsatarkan, topishing oson bo'ladi. Ammo ehtiyot bo'l: ovoz chiqmasin. Bolsheviklarning kerakli odami u. Do'ppisini olishga urinma. Kuli ko'kka uchsa ham mayli. Undan nom-nishon qolmasligi kerak. Bu ishni qoyillatganingdan keyin Mirkomil hoji otang bilan safarga jo'naysan.*

Muhiddin, angladim, deganday o'rnidan turib, qulluq qildi. Belbog'i orasidn oshiq olib, «gardkam!» deb gilamga tashladi-da: «Yo Jamshid, nafasingdan!» — deganicha tepdi. Oshiq yumalab borib olchi turdi. Xauston kulimsiradi. Muhiddin har safar shunday qiladi. Har safar oshiq olchi turgach,

³⁷ Enright D.J. Fair of speech: The uses of euphemism; D.J.Enright. – Oxford univ. press, 1985. – P. 54.

ko'ngli xotirjam bo'lib, xizmatni ado etishga jo'naydi. U oshiqni olib, o'pib qo'ydi-da, yana belbog'iga qistirib, Xaustonga qaradi. — Xujayin, picha aqcha kerak. Xauston uning maqsadini darrov fahmladi; u pulni oladiyu, Kallaxonagami, Langargami boradi. Oshiq tepib, avval atayin yutqizadi, keyin qimorbozlarning xonumonini kuydiradi (T.Malik. Savohil).

Ushbu parchada Xauston, dastlab, bir odamning o'ldirilishini "do'ppisini olish" tarzida evfemistik ifodalamoqda. So'ng, "ovoz chiqmasin" deya nafaqat ovoz, balki umuman gap-so'z chiqmasligi, guvoh bo'lmasligi nazarda tutilmoqda. Keyinchalik qimorbozlarning "xonumonini kuydirish" deganda ularni chuv tushirish, hammasining pulini yutib olish nazarda tutilmoqda.

Evfemizmlar bir so'z yoki yoyiq ifodalardir. *Zelixonning onasi betoblanib, ikki kungina yotdi. Uchinchi kuni uzildi* (T.Malik. Shaytanat) gapida "uzildi" "o'ldi"ning evfemizmi bo'lsa, quyida biz "pora"ning ifodalanishiga e'tibor qaratamiz: *Pora degan narsa bir qaraganda ko'rinishi yoqimtoy, tili shirin, onasi o'pmagan qizga o'xshaydi. Bu qiz ishvali jilmayib, ko'z qisib, nuqul to'shakka imlaydi. Hatto chol odamni ham bo'ydoq yigit holiga solib qo'yadi. Yelkadagi shayton tinmay shivirlab, «uning quchog'iga otil», deydi* (T.Malik. Shaytanat). Shunday qilib, evfemizmlar lingvomadaniyat nuqtai nazaridan qo'pol, yoki umuman noo'rin deb hisoblangan so'z va birikmalarning o'rnini bosuvchi hamda nutq vaziyatini yumshatuvchi birliklar sanalib, ulardan foydalanish muloqotga yordam beradi va badiiyatda lingvomadaniy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Rustamova D. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspektlari: Filol. fan. b. fals. dok. ...diss. – Farg'ona, 2018. – B. 18.
2. Enright D.J. Fair of speech: The uses of euphemism.; D.J.Enright. – Oxford univ. press, 1985. – P. 54.
3. T.Malik. Shaytanat. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir_Malik_Shaytanat_\(birinchi_kitob\).pdf?ysclid=ledppdtbx7159820069](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Tohir_Malik_Shaytanat_(birinchi_kitob).pdf?ysclid=ledppdtbx7159820069)
4. Usmanov F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. diss... avtoref. – Toshkent, 2020. // <http://library.ziyouz.com/static/lib/reader-pdf/web/viewer.html?file=http://library.ziyouz.com/uploads/books/251467/5e1c61965017c.pdf>